

Mavzu: INFLATSIYA VA ANTIINFLATSIYA SIYOSATI

Urinboyeva Yulduz Pirmazarovna - i.f.f.dok., dotsent

Nafasov Elbek Faxriddin o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya: ushbu amaliy ishda daromad va foyda haqida tushuncha berilib, shu mavzu yuzasidan test savollari tuzilgan.

Kalit sozlar: Inflatsiya, antiinflatsiya, inflatsiya darajasi, talab inflatsiyasi, taklif inflatsiyasi.

Inflatsiya - ma'lum davr mobaynida mamlakatda baholar o'rtacha (umumiy) darajasining barqaror o'sishi, pulning xarid qobiliyatini uzoq muddatli pasayishi.³⁰ Inflatsiya (lotincha inflatio - shishish, bo'rtish, taranglashish) - bozor iqtisodiyotining asosiy izdan chiqaruvchi omillari jumlasiga kiradi, uning sur'ati qanchalik yuqori bo'lsa, iqtisodiyotga xavfli ta'siri shunchalik katta bo'ladi. Ayniqsa bir iqtisodiy tizimdan ikkinchi bir iqtisodiy tizimga o'tayotgan mamlakatlarda inflatsiyaning iqtisodiyotga ta'siri ancha xavfli. Chunki, bu davr narxlarning erkinlashuvi va shunga muvofiq ularning umumiy darajasi keskin oshib ketishi bilan bog'liq.

Ammo inflatsiya davrida barcha tovarlarning baholari ham oshavermaydi: ayrimlariniki barqaror bo'lib tursa, ba'zilariniki esa tushishi mumkin.

"Inflatsiya" atamasi ilk bor Shimoliy Amerikada 1861-1865 yillardagi Fuqarolar urushi davrida qo'llanildi. Inflatsiyaning atamasi muomaladagi qog'oz pul massasining tovarlarning real taklifiga nisbatan haddan ziyod ko'payib ketishi holatini izohlangan. . Ammo inflatsiyaning bunday tavsifi mukammal emas va uning sabablarini ochib bermaydi. Umuman olganda inflatsiya pul muomalasi qonunlarining buzilishi shakli sifatida makroiqtisodiy muvozanatning buzilishini, talab va taklif nomutanosibligini anglatadi.

Antiinflatsiya siyosati-baholar umumiy darajasini barqarorlashtirish, inflatsion keskinlikni yumshatishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy siyosat.

Antiinflatsiya siyosati inflatsiyani yuzaga keltirgan sabablarni tugatishga qaratilgan faol va inflatsiya sharoitlariga moslashishga qaratilgan passiv ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Antiinflatsiya siyosati o'z ichiga quyidagilarni oladi:

-yalpi talabni tartibga solish;

-yalpi taklifni tartibga solish.

Keynschi iqtisodchilar birinchi yo'nalish tarafdorlari bo'lib, ular davlat buyurtmasi va arzon kredit hisobiga samarali talabni shakllantirish asosida yalpi taklif darajasini ko'tarish mumkin deb hisoblashadi. Hukumatni bu tadbirlar iqtisodiy pasayishni qisqartiradi va ishsizlikni kamaytiradi. Jahonning iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarida inflatsiyaga qarshi kurash olib borishda juda katta nazariy va amaliy tajriba to'plangan. Inflatsiyani butunlay yo'qotish imkoniyati yo'q. Chunki uni yuzaga chiqishiga sabab bo'lgan omillarni (ichki va tashqi, pullik va pulsiz) to'liq yo'qotish mumkin emas. shuning uchun hozirgi davrda eng asosiy maqsad inflatsiyaning butunlay yo'qotish emas, balki uni boshqaruvchan qilish va salbiy iqtisodiy – ijtimoiy oqibatlarini zaiflashtirish hisoblanadi.

Dunyoning turli mamlakatlarida xukumat tomonidan mavjud iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda inflatsiyaga qarshi turli antiinflatsiya siyosatini ishlab chiqaradilar va uni amalga oshiradilar.

Baholar o'rtacha (umumiy) darajasining nisbiy o'zgarishi inflatsiya darajasi (baholarning o'sish sur'ati) deb ataladi. Makroiqtisodiy modellarda inflatsiya darajasi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$P-P-1 \pi = \text{-----}$$

P-1 bunda: π – yillik inflatsiya sur'ati;

P - joriy yilning narxlar indeksi; P-1 - o'tgan yilning narxlar indeksi.

Inflatsiyani miqdoran o'lchash uchun makroiqtisodiyotda «70-miqdor qoidasi» deb atalgan usuldan ham foydalaniladi. Bu usul narxlarning barqaror

o'sishi sharoitida inflatsiya darajasi necha yilda ikki baravarga oshishini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun 70 ni yillik inflatsiya darajasiga bo'lish kifoya:

$$\begin{array}{lcl} \text{Baholar ikki martaga} & 70 & \\ \text{oshishi uchun zarur} & = & \text{-----} \\ \text{yillar soni } \pi & & \end{array}$$

Misol uchun, yillik inflatsiya darajasi 7 % ga teng bo'lsa, taxminan 10 yilda baholar ikki martaga oshadi, ya'ni, $(70:7 = 10)$.

Real YaIM va jamg'armaning necha yildan so'ng ikki marta oshishini hisoblash zarur bo'lgan hollarda ham «70-miqdor qoidasidan» foydalaniladi.

Talab inflatsiyasi iqtisodiyotda talab keskin oshib ketishi va uni ishlab chiqarishning real hajmi bilan qondirish mumkin bo'lmay qolgan sharoitlarda kelib chiqadi. Ya'ni, to'liq bandlikka yaqin sharoitda iqtisodiyotning ishlab chiqarish imkoniyatlari o'sib borayotgan yalpi talabni qondirolmaydi. Ortiqcha talab esa real tovarlar bahosining ko'payishiga iqtisodiy bosim beradi va talab inflatsiyasi kelib chiqadi. Yoki, oddiy so'zlar bilan aytganda,

«haddan ziyod pullar haddan kam tovarlarni ovlaydi». Talab inflatsiyasini keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar aholining ish bilan to'liq bandligi va ish haqining oshib borishi hisoblanadi. Demak, inflatsiya talab, taklif, ish bilan bandlik, baho, ishlab chiqarish sur'atlari kabi ko'pgina omillarga bog'liq.

Taklif inflatsiyasi bu, mamlakat iqtisodiyotida tovar va xizmatlar taklifining kamayishi natijasida tovar va xizmatlar baholarining oshishidan paydo bo'ladi. Bunday hollarda ortiqcha talab bo'lmasa ham tovarlarning baholari oshib boradi. Hatto ish bilan bandlik va YaIM ishlab chiqarish kamaygan yillari tovarlarning bahosi oshadi. Yalpi taklif qisqarishining asosiy sababi mahsulot birligiga sarflangan xarajatlarning o'sishi hisoblanadi.

Xulosa

Inflatsiya ma'lum davr mobaynida mamlakatda baholar o'rtacha (umumiy) darajasining barqaror o'sishi va pulning xarid qobiliyatini uzoq muddatli pasayishini anglatadi. Inflatsiyaning iqtisodiyotga salbiy ta'siri normal iqtisodiy munosabatlarni izdan chiqarishida namoyon bo'ladi.

Inflatsiya darajasi baho indeksleri vositasida o'lanadi.

Kelib chiqish sabablariga kqra talab inflatsiyasi va taklif inflatsiyasi o'zaro farqlanadi. Inflatsiyaning bu ikki turi ko'pincha aralash holda yuzaga keladi. Kutilmagan inflatsiya daromadlarni debitorlar va kreditorlar, aholining turli qatlamlari hamda davlat va aholi o'rtasida qayta taqsimlaydi. Ishsizlik va inflatsiya sur'atlari o'rtasidagi teskari bog'liqlik Fillips egri chizig'ida aks etadi.

Hukumat Fillips egri chizig'iga asoslanib qisqa davr uchun ishsizlik va inflatsiya darajalarining istalgan kombinatsiyasini tanlashi mumkin.

Antiinflatsiya siyosati-baholar umumiy darajasini barqarorlashtirish, inflatsion keskinlikni yumshatishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy siyosat.

Antiinflatsiya siyosati o'z ichiga quyidagilarni oladi:

-yalpi talabni tartibga solish;

-yalpi taklifni tartibga solish.

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarishni modernizatsiya va texnik qayta qurollantirishni izchil davom ettirish, energetika tizimini modernizatsiya qilish, kommunal xizmatlar baholari o'sishini cheklash mexanizmini shakllantirish, bank tizimini yanada takomillashtirish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, qabul qilingan Inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturida ko'zda tutilgan vazifalarni amalga oshirish inflatsiya sur'atlarini cheklash imkonini beradi.

Mavzuga doir testlar

1. Inflatsiya nima?
 - a) Pul qiymatining oshishi
 - b) Pul qiymatining pasayishi
 - c) Ishsizlikning oshishi
 - d) Ishlab chiqarishning ko'payishi
2. Inflatsiya qanday o'lanadi?
 - a) Ishsizlik darajasi bilan
 - b) Iqtisodiy o'sish sur'ati bilan

c) Narxlar indekslari bilan

d) Savdo balanslari bilan

3. Qaysi omil inflatsiyani keltirib chiqarishi mumkin?

a) Ish haqlarining keskin oshishi

b) Ihsizlikning kamayishi

c) Ishlab chiqarish samaradorligining oshishi

d) Davlat xarajatlarning qisqarishi

4. Past darajadagi inflatsiyaning iqtisodiyot uchun foydali tomoni qanday?

a) Ihsizlikni oshiradi

b) Iqtisodiy o'sishga turtki beradi

c) Ishlab chiqarishni qisqartiradi

d) Pulning qadrsizlanishiga olib keladi

5. Giperinflatsiya qanday holatni bildiradi?

a) Inflatsiyaning 1–3% oralig'ida bo'lishi

b) Inflatsiyaning nazorat ostida bo'lishi

c) Inflatsiyaning juda yuqori sur'atlarda o'sishi

d) Narxlarning pasayishi

6. Talab inflatsiyasi qanday sababga ko'ra yuzaga keladi?

a) Ishlab chiqarish xarajatlari oshgani uchun

b) Talabning taklifdan ortib ketgani uchun

c) Ihsizlikning oshgani uchun

d) Eksportning kamaygani uchun

7. Talab inflatsiyasi qaysi holatda yuzaga kelishi mumkin?

a) Ish haqlari va kreditlar oshsa

b) Ishlab chiqarish samaradorligi oshsa

c) Narxlar pasaysa

d) Tovar va xizmatlar taklifi oshsa

8. Talab inflatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan holat qaysi?

a) Ishlab chiqarish xarajatlarning oshishi

- b) Davlat budjeti taqchilligi natijasida pul massasi ortishi
- c) Import mahsulotlarining arzonlashishi
- d) Tovar va xizmatlar narxlarining tushishi

9. Talab inflatsiyasining oldini olish uchun qanday chora ko'rilishi mumkin?

- a) Ish haqlari oshirilishi
- b) Foiz stavkalari kamaytirilishi
- c) Pul-kredit siyosati qat'iylashtirilishi
- d) Davlat xarajatlari ko'paytirilishi

10. Talab inflatsiyasining asosiy natijasi nima?

- a) Ishsizlik oshadi
- b) Narxlar oshadi
- c) Ishlab chiqarish pasayadi
- d) Pul qiymati ortadi

11. Taklif inflatsiyasi qanday sababga ko'ra yuzaga keladi?

- a) Ish haqlari va ishlab chiqarish xarajatlari oshgani uchun
- b) Talab oshgani uchun
- c) Kredit stavkalari pasaygani uchun
- d) Import hajmi oshgani uchun

12. Taklif inflatsiyasiga sabab bo'luvchi omillar qaysilar?

- a) Ish haqlarining oshishi va xomashyo narxlarining ko'tarilishi
- b) Pul massasining kamayishi
- c) Davlat xarajatlarining qisqarishi
- d) Kredit olish sharoitlarining yaxshilanishi

13. Taklif inflatsiyasi qanday natijaga olib keladi?

- a) Ishsizlik kamayadi
- b) Narxlar oshadi, ishlab chiqarish kamayadi
- c) Ishlab chiqarish oshadi
- d) Pul qiymati mustahkamlanadi

14. Qaysi siyosat taklif inflatsiyasining oldini olishga yordam beradi?

a) Ishlab chiqarishni rag'batlantirish

b) Kreditlarni ko'paytirish

c) Soliq stavkalarini oshirish

d) Davlat xarajatlarini ko'paytirish

15. Taklif inflatsiyasi qanday holatda yuzaga kelmaydi?

a) Ishlab chiqarish xarajatlari ortganda

b) Xomashyo narxlari oshganda

c) Ish haqlari kamayganda

d) Energiya narxlari oshganda

16. Antiinflatsiya siyosati nima?

a) Narxlarning sun'iy oshirilishi

b) Ihsizlikni oshirish siyosati

c) Inflatsiyani kamaytirish bo'yicha choralar majmuasi

d) Davlat budjetining taqchilligini oshirish

17. Qaysi choralar inflatsiyani kamaytirishga yordam beradi?

a) Pul massasini ko'paytirish

b) Kredit sharoitlarini yengillashtirish

c) Markaziy bank foiz stavkalarini oshirish

d) Ish haqlarini oshirish

18. Pul-kredit siyosatining inflatsiyaga qarshi choralari nimalardan iborat?

a) Foiz stavkalarini pasaytirish

b) Pul massasini kamaytirish

c) Davlat xarajatlarini oshirish

d) Kreditlarni kengaytirish

19. Fiskal siyosat orqali inflatsiyani qanday kamaytirish mumkin?

a) Davlat xarajatlarini oshirish

b) Soliqlarni kamaytirish

c) Davlat xarajatlarini kamaytirish va soliqlarni oshirish

d) Pul massasini oshirish

20. Inflyatsiyani nazorat qilishning eng samarali usuli qaysi?
- a) Davlat xarajatlarini oshirish
 - b) Pul massasini orttirish
 - c) Markaziy bankning pul-kredit siyosatini qat'iylashtirish
 - d) Ish haqlarini oshirish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Inflyatsiyaning mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri va uni bartaraf etish chora-tadbirlari" – Mualliflar: Xasan Boyqobilov va Behruz Ibragimov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabalari. 2024-yil.
2. Krugman, Paul; Obstfeld, Maurice. International Economics: Theory and Policy. Addison-Wesley, 2008. ISBN 978-0-321-55398-0.